Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida chakana savdo sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan va yuqori raqobat muhitiga ega tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal taraqqiyoti, elektron tijoratning kengayishi, iste'molchilarning xarid qilish odatlaridagi sifat jihatidan yangi talablari hamda bozor ishtirokchilari o'rtasidagi raqobatning ortib borishi chakana savdo korxonalaridan an'anaviy faoliyat modellarini zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Bunday sharoitda korxonalarning barqaror rivojlanishi va bozor ulushini mustahkamlashi ko'p jihatdan kuchli va raqobatbardosh brendni shakllantirish hamda uni izchil rivojlantirish strategiyalariga bog'liq bo'lib bormoqda.

Zamonaviy sharoitda brend chakana savdo korxonasi uchun nafaqat marketing vositasi, balki uzoq muddatli strategik aktiv sifatida namoyon bo'lmoqda. Brend orqali korxona iste'molchi ongida o'ziga xos imij, ishonch va sodiqlikni shakllantiradi, mahsulot va xizmatlarining qo'shilgan qiymatini oshiradi hamda raqobatchilar orasida barqaror farqlanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ayniqsa, omnikanal savdo, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va mijoz tajribasiga yo'naltirilgan yondashuvlar sharoitida brendni samarali boshqarish masalasi chakana savdo korxonalari uchun dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda chakana savdo korxonalarida brendni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tahlil qilishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi asosan tizimli adabiyotlar tahlili va hujjatli tadqiqot usullariga asoslandi.

Shuningdek, indeksli, iqtisodiy-matematik hamda ekspert baholash usullari orqali brend rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar baholandi. Komparativ va analitik tahlil yordamida raqamli marketing texnologiyalarining korxona faoliyatiga ta'siri o'rganildi.

Olingan natijalarni umumlashtirish asosida chakana savdo korxonalarida brend strategiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Masalan, E.V.Noskova o'z nashrlarida chakana savdoni rivojlantiruvchi omillar hamda ularni baholash usullarini tahlil qilgan. I.S. Lebedeva esa chakana savdo sohasidagi zamonaviy faoliyat shakllari, agregatsiyalashgan biznes tuzilmalarining afzallik va kamchiliklarini o'rganib chiqqan. Ularning tadqiqotlari asosida quyidagi xulosa chiqarish mumkin: chakana savdo – bu ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotuvchi va bevosita iste'molchi o'rtasida tashkil etilgan ekvivalent almashinuv shaklidir.¹

Verhoef, Kannan va Inman o'z tadqiqotlarida chakana savdoda omnichannel marketing konsepsiyasini asoslab, brend rivojlanishi endilikda alohida savdo kanallari orqali emas, balki yagona integratsiyalashgan tizim orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, raqamli transformatsiya natijasida iste'molchi uchun brend — bu mahsulot emas, balki barcha aloqa nuqtalarini (online platformalar, mobil ilovalar, fizik do'konlar) qamrab olgan yagona tajriba muhitidir². Shu yo'nalishda Lemon va Verhoef tomonidan ishlab chiqilgan customer journey (mijoz yo'li) konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar brend qiymati iste'molchining xarid oldi, xarid jarayoni va xariddan keyingi bosqichlardagi barcha interaksional yig'indisi sifatida shakllanishini asoslaydi. Raqamli muhit esa ushbu jarayonni kengaytirib, chakana savdo brendlarini ko'p darajali tizimga aylantiradi³.

Grewal, Roggeveen va Nordfalt tadqiqotlarida esa chakana savdo brendlarini rivojlantirishda in-store texnologiyalar va raqamli innovatsiyalarning roli yoritiladi. Ular sun'iy intellekt, mobil texnologiyalar, geolokatsiya va big data kabi vositalar yordamida yaratilgan shaxsiylashtirilgan mijoz tajribasi brend sodiqligini oshirishning asosiy omiliga aylanayotganini ta'kidlaydi⁴. Raqamlashtirish jarayonining konseptual asoslari Hagberg, Sundström va Egels-Zandén tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular chakana savdoda digitalizatsiya natijasida brend va iste'molchi o'rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama va interaktiv tus olishini ko'rsatadi. Ularning fikricha,

1 Лебедева, С. И. Актуальные вопросы эффективной организации бизнеса в розничной торговле // Вестник РЭА. Предпринимательство и малый бизнес. – 2010. – № 5. – С. 65–72.

2 Verhoef, P. C., Kannan, P. K., & Inman, J. J. (2015). From multi-channel retailing to omni-channel retailing: Introduction to the special issue on multi-channel retailing. *Journal of Retailing*, 91(2), 174–181. <https://doi.org/10.1016/j.jretai.2015.02.005>.

3 Lemon, K. N., & Verhoef, P. C. (2016). Understanding customer experience throughout the customer journey. *Journal of Marketing*, 80(6), 69–96. <https://doi.org/10.1509/jm.15.0420>.

4 Grewal, D., Roggeveen, A. L., & Nordfalt, J. (2017). The future of retailing. *Journal of Retailing*, 93(1), 1–6. <https://doi.org/10.1016/j.jretai.2016.12.008>.

zamonaviy sharoitda iste'molchilar brendni shakllantirish jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol hamkoriga aylanadi.

Shu bilan birga, chakana savdoning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni kompleks baholash usullarini takomillashtirish, bozor sharoitlariga mos pozitsiyalash tizimi algoritmlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish, shuningdek, marketing tizimida tovarlarni bozorga samarali ilgari surish metodlarini ilmiy asosda chuqurroq tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan izlanishlar chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, marketing qarorlarining aniqligi va samaradorligini kuchaytirish hamda bozor muhitida barqaror pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chakana savdoda marketingni qo'llashdagi o'ziga xos xususiyat – bu sohadagi amaliy tajriba yetishmasligi va marketing sohasi bo'yicha malakali kadrlar sonining kamligi bilan bog'liq. Natijada chakana savdo korxonalari marketing faoliyatidan olinayotgan natijalarni to'liq va xolis baholash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ushbu holat marketing faoliyatining iqtisodiy samaradorligini yetarli darajada anglab yetmaslikka olib kelib, marketing xarajatlari uchun ajratiladigan moliyaviy resurslarning cheklanishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida, bu jarayon chakana savdo sohasida innovatsion bozor marketingi mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda korxonalarining raqobatbardoshligini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois chakana savdoda marketingdan foydalanishning o'ziga xos jihatlarini har tomonlama va tizimli tarzda o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Xususan, mahsulotlarni bozor sharoitlariga mos holda pozitsiyalash hamda ularni bozorga ilgari surish tizimini marketing faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida aniqlash uchun tegishli omillarni baholash usullarini aniqlab olish zarur. Ushbu usullar marketing qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish, resurslardan oqilona foydalanish hamda chakana savdo korxonalarida marketing strategiyalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur omillar va ularni baholash yondashuvlari keyingi bosqichda 1-jadvalda tizimli ravishda keltiriladi.

1-jadval. Chakana savdo korxonalari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni baholash usullari⁵

№	Usul nomi	Tavsifi	Qo'llash shartlari
1.	Indeksli usul	Indeksar va nisbiy rivojlanish ko'rsatkichlari asosida shakllanadi.	Barqaror rivojlanish sharoitlarida samarali, rasmiy va ishonchli ma'lumotlarga asoslanadi, asoslovchi omillarni aniqlashga yordam beradi.
2.	Zanjir bog'liqliklar usuli	Bevosita yoki teskari funksional, sabab-oqibatli bog'liqliklarni aniqlash.	Rivojlanishning barqaror bosqichida samarali bo'lib, ishonchli rasmiy ma'lumotlarga asoslanadi, xatolik ehtimolini kamaytiradi.
3.	Ekspert baholash usuli	Ma'lumot yig'ishning xilma-xil usullari va ekspertlarning subyektiv fikriga asoslanadi.	Iqtisodiy beqarorlik sharoitlarida, sanksiyalar ostida o'sayotgan bozor holatlarida, ekspert fikrlarini jalb etish bilan qo'llaniladi.
4.	Integral usul	Maxsus matematik modellar (multiplikativ, aralash) orqali aniqroq baholash imkonini beradi.	Keng ko'lamli tadqiqotlar, marketologlar tomonidan foydalaniladi, katta hajmdagi rasmiy ma'lumotlarga tayanadi.
5.	Iqtisodiy-matematik usul	Korrelyatsion, regressiya, dispersion, komponentli tahlil usullaridan foydalanadi.	Marketing tadqiqotlarida qo'llaniladi. Majburiy ravishda ishonchli rasmiy manbalardan ma'lumotlar olinadi, statistik tahlilni talab qiladi.

Pozitsiyalash tizimi mahsulotning bozor muhitida iste'molchilar ongida aniq va barqaror tasavvurini shakllantirishga qaratilgan strategik marketing mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizim mahsulotni iste'molchiga taqdim etish, uning funksional va emotsional afzalliklarini ochib berish, shuningdek, brend va mahsulotlarni marketing tamoyillari asosida maqsadli bozor segmentlariga samarali ilgari surishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Pozitsiyalash jarayonida mahsulotning raqobatchilardan farqlanuvchi jihatlari aniqlanib, iste'molchilar ehtiyojlari va kutishlariga mos qiymat taklifi shakllantiriladi.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari, yetakchi olimlarning nazariy qarashlarini tahlil qilish hamda ularni umumlashtirish asosida chakana savdo marketing tizimida tovarlarni pozitsiyalash va bozorga ilgari surishning yaxlit modeli ishlab chiqildi. Mazkur model chakana savdo korxonalarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etish, mahsulotlarning bozor pozitsiyasini mustahkamlash va raqobatbardosh ustunlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ishlab chiqilgan algoritmi marketing qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish, resurslardan

5 Носкова Е.В. Оценка факторов, влияющих на развитие розничной торговли Дальневосточного федерального округа // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. – 2020. – №3 (51)..



oqilona foydalanish va iste'molchilar bilan samarali kommunikatsiyalarni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Ushbu algoritmnining asosiy bosqichlari va tarkibiy elementlari keyingi qismda 2-jadvalda batafsil yoritiladi.

2-jadval. Chakana savdo marketing tizimida tovarlarni pozitsiyalash va bozorga ilgari surish tizimini ishlab chiqish va joriy etish algoritmi⁶

№	Algoritm bosqichi nomi	Bosqich mazmuni
1.	Bozorni segmentlarga ajratish, maqsadli segmentlarni aniqlash	Bozorni segmentlarga ajratish, maqsadli segmentlarni tanlash, segmentatsiyaga ta'sir ko'rsatadigan omillar ro'yxatini shakllantirish
2.	Pozitsiyalash tizimini o'rganish va uning elementlarini aniqlash	Maqsadli segmentlar iste'molchilarining afzalliklarini o'rganish, raqobatchilar bilan mezonlar bo'yicha taqqoslash, ustunliklarni ajratib ko'rsatish, asosiy pozitsiyalashni aniqlash
3.	Pozitsiyalash va bozorga ilgari surish strategiyasini ishlab chiqish	Raqobatbardoshlik va ustunliklarni shakllantirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish, marketing-miks dasturlarini shakllantirish, asosiy yo'nalishlar (reklama, PR, distributsiya, xizmat ko'rsatish va h.k.) orqali strategiyani joriy etish
4.	Pozitsiyalash va ilgari surish strategiyasini bosqichma-bosqich joriy etish	Pozitsiyalash va ilgari surish strategiyasi va taktikasini amalda qo'llash uchun yo'l xaritasi ishlab chiqish

Chakana savdo sohasida marketing majmuasi maqsadli auditoriyadagi iste'molchilarni jalb etish, ularni ushlab qolish va sonini ko'paytirishga xizmat qiladigan turli elementlarni o'z ichiga oladi. Chakana savdoda marketing majmuasining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

Mahsulot (Product). Mahsulot chakana savdo korxonasi tomonidan iste'molchilarga taklif etiladigan tovarlar assortimentini ifodalaydi. Mahsulot siyosatini samarali boshqarish iste'molchilar ehtiyojlariga mos assortimentni shakllantirish, mahsulotning dizayni va o'rami, brendlash darajasi hamda sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu omillar mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish va iste'molchi ongida barqaror tasavvur shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Narx va narx belgilash siyosati (Price). Narx siyosati chakana savdo marketingining asosiy instrumentlaridan biri bo'lib, u an'anaviy narx belgilash strategiyalari bilan bir qatorda chegirmalar, aksiyalar, bonus va sodiqlik dasturlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Narx mexanizmlarining moslashuvchanligi xaridorlarni jalb qilish, savdo hajmini oshirish va chakana savdo korxonasining umumiy marketing strategiyasini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Joylashuv (Place). Joylashuv do'konlar, omborlar va savdo nuqtalarining hududiy jihatdan qulay joylashtirilishini anglatadi. Mazkur omil iste'molchilarning savdo obyektlariga oson yetib borishini ta'minlash bilan birga, mahsulotlarni yetkazib berish va taqsimlashning samarali logistika zanjirlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri tanlangan joylashuv chakana savdo korxonasining bozor qamrovini kengaytiradi.

Ilgari surish (Promotion). Ilgari surish faoliyati reklama, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli marketing, email-marketing va boshqa kommunikatsiya kanallari orqali mahsulot va brendlarga iste'molchilar e'tiborini jalb etishga qaratiladi. Ushbu omil iste'molchilar bilan axborot almashuvini faollashtirib, ularning xarid qilish qarorlariga ta'sir ko'rsatadi va marketing strategiyasining amaliy natijadorligini oshiradi.

Xodimlar (People). Xodimlar chakana savdo korxonasining muhim resursi bo'lib, ular mijozlar bilan bevosita muloqotda bo'ladi. Malakali, rag'batlantirilgan va mijozga yo'naltirilgan xodimlar xizmat ko'rsatish sifatini oshirib, iste'molchilar qoniqishini va sodiqligini ta'minlaydi. Shu sababli kadrlar siyosati marketing tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Jismoniy muhit (Physical evidence). Jismoniy muhit savdo nuqtalarining ichki va tashqi dizayni, atmosferasi, qulaylik darajasi hamda vizual elementlarini o'z ichiga oladi. Qulay va estetik jihatdan jozibador muhit iste'molchilarning savdo jarayonidan oladigan umumiy taassurotni shakllantiradi hamda xarid qilish ehtimolini oshiradi.

Jarayonlar (Process). Jarayonlar mahsulotlarni xarid qilish, hisobga olish, buyurtmalarni qayta ishlash va mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsion faoliyatni anglatadi. Ushbu jarayonlarning samarali tashkil etilishi vaqt va xarajatlarni qisqartirishga, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga hamda chakana savdo faoliyatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qo'shimcha xizmatlar (Additional services). Qo'shimcha xizmatlar mahsulotlarni yetkazib berish, kafoflatli xizmatlar, maslahatlar va sotuvdan keyingi xizmatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu xizmatlar iste'molchilarning qo'shimcha ehtiyojlarini qondirib, ularning umumiy qoniqish darajasini oshiradi va raqobat muhitida qo'shimcha ustunlik yaratadi.

Yuqoridagi elementlarni kompleks yondashuvda qo'llash chakana savdo kompaniyalariga xaridorlarni jalb qilish, ularni ushlab qolish va savdo sohasida muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

Pozitsiyalash strategiyasini shakllantirishga bo'lgan yondashuvlar nazariy va amaliy xarakterga ega bo'lib, pozitsiyalash tizimini joriy etish va amaliyotga tatbiq etishning klassik namunasi hisoblanadi. Ularning xususiyatlari va to'liq tavsifi quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Chakana savdoda mahsulot va tovar brendlarini pozitsiyalash hamda bozorga ilgari surish strategiyasining asosiy yondashuvlari⁷

№	Yondashuvlar	Mazmuni
1.	Mahsulotning individual xususiyatlari	Xaridorning ehtiyojlarini to'liq qondirishga qaratilgan bo'lib, xaridorga foyda keltiradigan individual xususiyatlarga ega mahsulotlarni sotib olish orqali amalga oshiriladi.
2.	"Narx-sifat" yondashuvi	Zamonaviy xaridor yetarlicha xabardor bo'lib, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari va spetsifikasini tushunadi hamda narx va sifatni solishtirish asosida qaror qabul qiladi.
3.	"Qo'llanilish sohasi" yondashuvi	Mashhur ishlab chiqaruvchilar pozitsiyalash strategiyasida mahsulotdan foydalanish yoki qo'llanish sohasi orqali brend bozorini kengaytirishga intiladi.
4.	"Mahsulot foydalanuvchisi" yondashuvi	Mahsulotni mashhur shaxs yoki model orqali reklama qilish orqali uni ma'lum bir iste'molchi yoki iste'molchilar sinfiga bog'lash orqali iste'molchiga qiymat yetkaziladi.
5.	"Mahsulot sinfi" yondashuvi	Mahsulotni reklama qilishda u o'ziga xos yoki afzalliklarga ega bo'lgan muayyan sinfga tegishli mahsulot sifatida pozitsiyalanadi.

Bozor sharoitida tovar brendini samarali ilgari surish jarayonida pozitsiyalashni aniq belgilash muhim strategik vazifa hisoblanadi. Chunki pozitsiyalash mahsulot yoki xizmatning raqobatchilarga nisbatan bozorga xos noyob jihatlari va ustunliklarini aniqlashga asoslanadi hamda iste'molchilar ongida muayyan brend haqidagi barqaror tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu noyoblik, odatda, mahsulotning sifati, dizayni, narx siyosati, funksional xususiyatlari yoki qo'shimcha qiymat yaratadigan boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi.

Pozitsiyalash jarayonida asosiy e'tibor brendning fundamental qadriyatlari va uni raqobatchilardan farqlab turuvchi xususiyatlarini mujassamlashtirgan aniq, izchil va esda qolarli konsepsiyani shakllantirishga qaratiladi. Bunday konsepsiya iste'molchilar ongida brendning o'ziga xosligini mustahkamlab, xarid qilish qaroriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan pozitsiyalash nafaqat marketing kommunikatsiyasining elementi, balki brend strategiyasining markaziy bo'g'inini sifatida namoyon bo'ladi.

Pozitsiyalash va tovar brendini bozorga ilgari surish tizimida reklama muhim va ta'sirchan marketing vositalaridan biri hisoblanadi. Reklama faoliyati mahsulot yoki xizmatga nisbatan tanilish darajasini oshiradi, iste'molchilarning xabardorligini kengaytiradi hamda brend haqidagi dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Sifatli, mazmunli va jozibador reklama iste'molchilarning e'tiborini tortib, ularda ijobiy emotsional munosabatlarni vujudga keltiradi. Natijada ushbu psixologik ta'sir brendning raqobat muhitida ajralib turishiga va iste'molchilar tomonidan tanlanish ehtimolining oshishiga olib keladi.

Shu bilan birga, pozitsiyalash va bozorga ilgari surish tizimlarining samaradorligini doimiy monitoring qilish va tahlil etish bozorda barqaror muvaffaqiyatga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Iste'molchilarning marketing faoliyatiga bildirgan munosabatlarini, mahsulot yoki xizmat haqidagi fikr-mulohazalarini muntazam baholash orqali brendni ilgari surish strategiyasini o'z vaqtida sozlash va takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa raqobatdosh ustunliklarni saqlab qolish, bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga moslashish hamda o'zgaruvchan bozor sharoitlarida brendning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, chakana savdo marketingi tizimini shakllantirish – bu oddiy savdo jarayoni emas, balki iqtisodiy nazariya, menejment va innovatsion marketing konsepsiyalariga asoslangan kompleks boshqaruv tizimidir. Bozor sharoitlarining tezkor o'zgarishi, raqamli transformatsiya, iste'molchi xulq-atvorining murakkablashuvi va brendga nisbatan e'tiqodning kuchayishi chakana savdo korxonalarini yangi strategik yondashuvlarga o'tishga majbur qilmoqda. Shu boisdan, har bir bosqich maqsadlarni aniqlash, marketing vazifalarini belgilash va strategiyalarni ishlab chiqish tizimli asosda amalga oshirilishi lozim.

7 Muallif ishlanmasi.



Chakana savdoda marketingni rivojlantirish maqsadlari barqaror o'sishni ta'minlash, mijozlar ehtiyojini chuqur tahlil qilish va bozorda raqobat ustunligini shakllantirishga qaratilishi zarur. Chandler va Ansoff nazariyalari asosida maqsadlar uzoq muddatli istiqbolga yo'naltirilgan bo'lishi, Porter raqobat ustunligi modeli esa mahalliy bozorlarda geografik va ijtimoiy omillarni inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi. Bu jihatlar innovatsiyaga asoslangan, mijozga yo'naltirilgan chakana savdo strategiyalarining poydevorini tashkil etadi.

Chakana savdo tizimida iste'molchi xulq-atvori va brend boshqaruvi integratsiyasi sohaning yangi rivojlanish bosqichini belgilaydi. Bu yondashuv iqtisodiyotda savdo madaniyatining yuksalishi, milliy brendlar raqobatbardoshligini oshirish va chakana sektorni innovatsion rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Chakana savdo tizimida iste'molchi xulq-atvori korxonaning marketing strategiyasi va brend boshqaruvi samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Xarid jarayonining psixologik, ijtimoiy va texnologik jihatlarini chuqur tahlil qilish chakana savdo korxonalariga iste'molchilarning real ehtiyojlari va kutilmalariga mos qiymat takliflarini shakllantirish, bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tezkor moslashish hamda barqaror raqobat ustunligini ta'minlash imkonini beradi. Shu jihatdan iste'molchi xulq-atvori marketing strategiyalarini optimallashtirishda asosiy yo'naltiruvchi omil bo'lib, korxonalarga o'z brend qadriyatlarini iste'molchi ongida mustahkamlash, ishonch va sodiqlikni izchil oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. DemandSage. (2024). 151 Digital Marketing Statistics 2025 (Growth Trends). <https://www.demandsage.com/digital-marketing-statistics/>
2. The Business Research Company. (2024). Retail Digital Transformation Global Market Report 2024. <https://blog.tbrc.info/2024/10/retail-digital-transformation-market-trends/>
3. Whatfix. (2024). Digital Transformation in the Retail Industry in 2025. <https://whatfix.com/blog/retail-digital-transformation/>
4. Shopify. (2024). Digital Marketing Statistics for Businesses (2024). <https://www.shopify.com/blog/digital-marketing-statistics>
5. BYYD. (2025). Digital Marketing in Uzbekistan: 2025 Trends and Insights. <https://www.byyd.me/en/blog/2025/10/digital-marketing-in-uzbekistan-2025-trends-and-insights/>
6. Emerald Insight. (2024). The impact of social media marketing on brand awareness, brand engagement and purchase intention in emerging economies. Marketing Intelligence & Planning. <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/mip-06-2023-0248/full/html>
7. ResearchGate. (2024). Exploring the Impact of Digital Transformation on Marketing Strategies in the Retail Sector. Preprints.org. <https://www.researchgate.net/publication/383142673>
8. Cui, T.H., et al. (2021). Informational Challenges in Omnichannel Marketing: Remedies and Future Research. Journal of Marketing, 85(1). <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/0022242920968810>
9. Wharton Executive Education. (2025). What Is Omnichannel Marketing? <https://executiveeducation.wharton.upenn.edu/thought-leadership/wharton-online-insights/what-is-omnichannel-marketing/>
10. Modern Retail. (2024). Modern Retail+ Research roundup: Retailers' e-commerce, retail media, and social media strategies were 2024's biggest trends. <https://www.modernretail.co/marketing/modern-retail-research-roundup/>
11. Verhoef, P. C., Kannan, P. K., & Inman, J. J. (2015). From multi-channel retailing to omni-channel retailing. Journal of Retailing, 91(2), 174–181. <https://doi.org/10.1016/j.jretai.2015.02.005>
12. Lemon, K. N., & Verhoef, P. C. (2016). Understanding customer experience throughout the customer journey. Journal of Marketing, 80(6), 69–96. <https://doi.org/10.1509/jm.15.0420>
13. Grewal, D., Roggeveen, A. L., & Nordfält, J. (2017). The future of retailing. Journal of Retailing, 93(1), 1–6. <https://doi.org/10.1016/j.jretai.2016.12.008>
14. Hagberg, J., Sundström, M., & Egels-Zandén, N. (2016). The digitalization of retailing. International Journal of Retail & Distribution Management, 44(7), 694–712. <https://doi.org/10.1108/IJRDM-09-2015-0140>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100